

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2025-4/1
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2025

Bosh muharrir:*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o‘rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.
Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots,
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.
Gandjayevo Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.
Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.
Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.
Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD

Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.
Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent
Pazilov Abduvayit, b.f.d., prof.
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.
Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.
Safarov Alisher Karimjanovich, b.f.d., dos.
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.
Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.
Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.
Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.
Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.
Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.
Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD
Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№4/1 (125), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2025 y. – 337 b. –Bosma nashrning elektron varianti - <https://www.mamun.uz/bulletin>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

MUNDARIJA

BIOLOGIYA FANLARI

Abdikarimov B. Q., Qodirova Z. N., Maxmudov T. X., Abduvaliyev B. A. Toshkent viloyati hududida no'xat o'simligini kasallantiruvchi luteoviruslar immunodiagnostikasi	7
Abdiniyazova G.J. The use of medicinal plants of the republic of Karakalpakstan in diseases of the nervous system	10
Abdirimova D.B., Dexqonova D. R. Xorazm viloyati turli ekologik sharoitdagi suv havzalari yozgi va kuzgi zooplankton organizmlari	14
Asadova Sh.M., Buranova G.B. Emizikli ayollarning vitaminlar bilan fiziologik ta'minlanishi	17
Axatov H., Axmedov Sh. Golubikani kulturaga kiritishda kurtaklarni sterillashning ahamiyati	20
Azimova D., Esanqulova D., Sharipova M., Sindorov A., Raxmataliyev A., Yusupov Z. Differentiation of species based on the morphological features of the spikes of some species belonging to the <i>Aegilops</i> L. family	23
Baboev S.K., Umarova G.A., Kimsanova G.A. Bug'doyning morfo-biologik xususiyatlari ko'rsatkichlarining taxlili	26
Badalova M.F., Atajanova Sh.M., Abdullaev I.I. Shimoliy garbiy O'zbekiston qon so'ruvchi yoki haqiqiy chivinlar (Diptera: Culicidae) faunasi va tur tarkibi	31
Bazarbaeva K.S., Amirov O.O. Xorazm viloyati suv xavzalarida tarqalgan baliqlarning parazit faunasi	35
Bekchanov N.X. O'zbekiston Tentyriini (Coleoptera: Tenebrionidae) tribasi vakillarini morfologik moslanish belgilariga asosan hayotiy shakllari	41
Chariyev R.R. Qarshi cho'li o'simliklar qoplamidagi qamishzor (Phragmites) formatsiyasi	44
Davronova A.O. Qorovulbozor vohasi yem-xashak o'simliklari va ularning tasnifi	48
Dosmaganbetov S. Hibiscus perspective decorative plant	52
Gapparov B.M., Ernazarova D.Q., Xalikov Q.K., Xolova M.D., Kushanov F.N. G'o'zaning avtopoliploid shakllarida sitogenetik tahlillar (<i>G.arboreum</i> L.)	57
Islamov B.S., Turakulova F.X., Islamova Z.B. Qontepar (<i>biebersteinia multifida</i> dc.) ning ayrim dorivorlik xususiyatlari	62
Joldasbaeva E.K. Rodentia guruhi vakillarining o'rmon landshafti va voha - ekin zonalarida tarqalishi	65
Mardonov Sh.U., Mustafayev I.M., Boboxonov M.Z. Bobotog' milliy tabiat bog'i hududida tarqalgan zang zamburug'lari va ularning taksonomik tahlili	68
Matsopayeva Sh.A. Malina (<i>Rubus idaeus</i> L.) Polka navini in vitro sharoitida ildizlantirishda ozuqa muhiti va fitogormonlarning optimallashtirilishi	72
Mustafayeva M.I., Jumayeva Sh.B. Buxoro viloyatining ayrim suv omborlari algoflorasining ekologik xususiyatlarini o'rganish	75
Nazarov J.S. Patogen mikobakteriyalarning immunobiologik xususiyatlariga asoslangan sil diagnostikasining turli laboratoriy usullarini qiyosiy tahlili	78
Nurjanov A.A., Medetov M.J., Orazova F.U., Nurjonov F.A. Xorazm viloyati to'g'riqanotli hasharotlari tur tarkibi	85
Nurmuhamedova D.Q., Qutliyeva G.J. Yarali kolit kasalligini oldini olish va davolashda sut achituvchi bakteriyalarni qo'llash imkoniyatlari	88
Qo'ziyeva S.O'., Ortiqova M.I., Jumanova Z.D. Bo'ymodaron (<i>Achillea millefolium</i>) o'simligining dorivorligi va yetishtirish texnologiyasi	95
Raxmatova G.R., Eshmuratov R.A., Matyakubov Z.Sh. Xorazm tuproq-iqlim sharoitida staxis betonicae flora o'simligini ayrim bioekologik xususiyatlari	97
Rayimov A.R., To'raev M.M., Nurova H.K. Buxoro viloyati va unga tutash hududlarda uchraydigan kemiruvchilar - rodentia ning biotoplarda tarqalishi	100
Roxatalieva H.B., Azimova N.Sh., Rajabova D.Sh., Karimov H.X. Issiqxonada yetishtirilgan kasallangan pomidor o'simligining bakterial tarkibi va ularning xususiyatlari	104

O'simliklarning gullashida muayyan marom kuzatiladi. Har bir o'simlik turning guli kunning ma'lum bir soatlarida ochiladi. CHanglanish tipini va o'simlik gulining kunning qaysi vaqtida changlanganda ko'proq meva tugishiga ijobiy ta'sirini aniqlash — gul biologiyasini o'rganishga yordam beradi.

Kuzatish ishlarini olib borish uchun 10 ta belgilangan o'simliklarda ertalabki soat 8⁰⁰ dan kechki soat 24⁰⁰ gacha har ikki soatda o'simliklardagi ochilgan gullar sanab borildi.

1. Urug' mahsuldorligi

O'simlikning urug' mahsuldorligi shu turning istiqbolini belgilovchi omil hisoblanadi. Har qanday turning biologik tavsifini berish uchun uning urug' mahsuldorligini aniqlash talab qilinadi. Bu esa mazkur turni tabiatda va iqlimlashtirilgan sharoitda qo'llash imkoniyatini ko'rsatadi.

O'rganilgan o'simliklar urug'larining ichki tomoni uchta qirrali, tashqi tomoni qavariq shakldagi yong'oqcha. *S. betonicaeflora* da to'q jigarrang tusda bo'lib *S. betonicaeflora* da esa uzunligi 3,8±0,14 mm, eni 2,4±0,09 mm ni tashkil etdi (3.3-jadval). 1000 dona urug'ining massasi *S. betonicaeflora* da 1,35±0,05 g ga teng bo'ldi. [7].

Biz adabiyotlardan *Statix* turkumi turlari urug' mahsuldorligi to'g'risida ma'lumotlar topa olmadik. SHu sabab, Toshkent sharoitida 2024 yilda o'rganilgan o'simliklarda potensial urug' mahsuldorligi (PUM) va haqiqiy urug' mahsuldorligi (HUM) ni aniqladik.

2 — jadval

Xorazm sharoitida *S. betonicaeflora* o'simliklari bitta generativ novdasining o'rtacha urug' mahsuldorligi (n=10)

O'simlik turi	Yillar	Urug' mahsuldorligi, dona		Mahsuldorlik koeffitsienti, Mk %
		PUM	HUM	
<i>S. betonicaeflora</i>	2024	670,7±25,7	260,2±12,1	38,3±2,5
	2025	678,8±26,1	277,3±13,8	40,3±2,6

Ikki yillik tajriba natijalariga ko'ra, *S. betonicaeflora* o'simligining haqiqiy urug' mahsuldorligi ko'rsatkichiga nisbatan ancha yuqori (17% gacha) bo'lishi aniqlandi.

Urug'larning sifat ko'rsatkichlari yaxshi bo'lib, hasharotlar bilan zararlanganligi kuzatilmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vasilchenko I.T. Morfologiya prarastaniya gubotsvetnyx (sem. Labiatae) v svyazi s ix sistematikoy // Tr. BIN AN SSSR. – № 1. (6). – L., 1947. – S. 72-104.
2. Kononkov P.F. Introduksiya rasteniy – vajnyy rezerv v reshenii problemy prodovolstviya i kormoproizvodstva // Introduksiya netraditsi-onnyx i redkix selskoxozyaystvennyx rasteniy: Materialy Vserossiyskoy nauchno-proizvodstvennoy konferensii. – Penza, 1998. T.1. – S. 25-28.
3. 89. Rabotnov T.A. Jiznennyy siki mnogoletnix travyanistyx rasteniy v lugo-vyax senozax // Tr. BIN AN SSSR. 1950. – № 3 (6). – S. 7-204.
4. Reymer F.E., Illi I.E. Prorastanie semyan i temperatura. – Novosibirsk: Nauka, 1978. – 168 s.
5. Safarova N.K. Biologiya i vodnyy rejim Hibiscus esculentus L. v razlichnyx usloviyax introduksii: Avtoref. dis. ... kand. biol. nauk. – Tashkent, 2010. – 24 s.
6. Uranov A.A. Vozrastnoy spektr fitotsenopopulyasii kak funktsiya vremeni i energeticheskix volnovykh protsessov // Nauchn. dokl. vyssh. shk. (Biol. nauki). – № 2. – Moskva, 1975. – S. 27-35.
7. Eshmuratov R.A. Turli introduksiya sharoitlarida stachys l. turkumiayrimturlarining bioekologik xususiyatlari: nomzodlik dissertatsiyasi. – Tashkent, 2012. – 145 b.

UO'K 59

BUXORO VILOYATI VA UNGA TUTASH HUDUDLARDA UCHRAYDIGAN KEMIRUVCHILAR - RODENTIA NING BIOTOPLARDA TARQALISHI

A.R. Rayimov, PhD, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro
M.M. To'raev, b.f.n., dos., Buxoro davlat universiteti, Buxoro
H.K. Nurova, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro

Annotatsiya. Maqolada Buxoro viloyati va unga chegaradosh bo'lgan hududlarda uchrovchi kemiruvchilarning tur tarkibi, yetakchi turkum, oilalar spektri, taksonomik tarkibi, tahlil qilingan. Tadqiqotlarimizda Buxoro viloyati va unga chegaradosh hududlardagi kemiruvchilarni xilma-xilligi, soni, biotoplar bo'yicha tarqalishi va tur tarkibining mavsumiy o'zgarishi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Suvlik biotoplar, Cho'l, To'qay, qo'riqzona, fauna, flora, aholi punktlari

Аннотация. В статье проанализирован видовой состав грызунов — Родентий, род-лидер, спектр семейств, таксономический состав, встречающихся в Бухарской области и приграничных с ней районах. В наших исследованиях анализируется разнообразие, численность, распределение по биотопам и сезонные изменения видового состава грызунов — Родентий в Бухарской области и сопредельных районах.

Ключевые слова: водные биотопы, пустыня, Тугай, заповедник, фауна, флора, поселения

Abstract. The article analyzes the species composition of rodents — Rodentia, their leading orders, the range of families, and the taxonomic composition found in Bukhara region and its bordering areas. Our research analyzes the diversity, abundance, distribution by biotope, and seasonal changes in the species composition of rodents in Bukhara region and adjacent areas.

Key words: aquatic biotopes, desert, gallery forest, nature reserve, fauna, flora, settlements.

Kirish. Bugungi kunda Buxoro viloyatida iqlim o'zgarishi, ishlab chiqarishining rivojlanib borishi, sanoat chiqindilari tufayli atrof-muhit ifloslanishining muntazam ravishda oshib borishi, faunaning ajralmas qismi hisoblangan kemiruvchilar xilma-xilligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda va ularning har xil biotoplarda turlicha moslashishiga olib kelmoqda. Antropogen o'zlashtirilgan va aholi zich yashaydigan hududlarda kemiruvchilar vakillarining keskin qisqarishi kuzatilmoqda. Tuproq hosil bo'lishida va o'simlik qoplamining shakllanishida rol o'ynaydigan kemiruvchilar faunasini aniqlash va ularning boshqa hayvonlar, hatto, inson salomatligiga xavf tug'diradigan ko'plab yuqumli kasalliklarni keltirib chiqarishiga, hamda ularga qarshi kurashish usullarini yaratish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot obyekti: Buxoro viloyati va unga tutash hududlarda uchraydigan kemiruvchilarning xilma-xilligi, soni, biotoplar bo'yicha tarqalishi va tur tarkibining mavsumiy o'zgarishi tahlil etiladi.

Tadqiqot predmeti: Buxoro viloyati va unga tutash hududlarda uchraydigan kemiruvchilarning turli yashash muhitlarida hozirgi kundagi holatini o'rganish orqali sonini aniqlash, tabiatdagi va xo'jalikdagi ahamiyatini belgilash hisoblanadi.

Material va metodika: Tadqiqot olib borilgan hududning katta qismini gil tuproqli, toshli cho'l, sho'rlangan botqoqliklar va qum tepaliklar tashkil qiladi. Sho'rxok tuproqli cho'lda o'simliklardan *Climacoptera ferganica*, *Chenopodium album*, *Ceratocarpus utriculosus*, *Tamarix*, *Haloxylon persicum*, *Haloxylon aphyllum*, *Descurainia sophia*, *Alhagi pseudalhagi*, *Ammodendron conollyi* occur, *Artemisia diffusa*, *Anabasis eriopoda* va shunga o'xshash efemer, hamda efemeroidlar o'sgan. Buxoro viloyati va unga tutash bo'lgan hududlarda kemiruvchilar tur tarkibini aniqlash maqsadidagi kuzatuvlarimizni 2015-2025-yilda amalga oshirdik. Turli tabiiy biotoplarida — cho'l, chala cho'l, tog' etaklari (Quljuqto'v massivi), tabiiy suv havzalari, Amudaryo qayiridagi to'qaylar (Qizilqum qo'riqxonasi) hamda, qisman o'zlashtirilgan hududlar, agrolandshaftlar va chuqur o'zlashtirilgan urbanozonalarda, statsionar va marshrutlarda yilning turli mavsumlarida (bahor, yoz, kuz va qish) kuzatish, ishlari olib borildi [1;3].

Kemiruvchilarning sonini hisobga olish natijalari 10 gektarli o'lchovdosh maydonga ekstrapolyatsiya qilindi va hayvonlar jamoasining zichligi quyidagi formula bo'yicha aniqlandi.

$$D = \frac{n}{2 \cdot L \cdot W};$$

bu yerda D — zichlik; n — uchratilgan qushlar soni; L — marshrut bo'yi; W — marshrut eni yoki marshrut o'qidan hisob olib borilgan yo'lakning chegarasigacha bo'lgan masofa [1.2;4]. Marshrut o'qidan chap va o'ng tomonlardagi kemiruvchilarni hisobga olish uchun formulada 2 ko'paytmasi qo'llanilgan, ammo bizning hisoblarimiz natijalari biotoplarning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda, marshrut o'qining bir tomonidan olindi.

Mavzu bayoni. Buxoro viloyatida uchraydigan kemiruvchilar turkumining 7 ta oila (*Citellus*, *Hystriidae*, *Dipodidae*, *Muridae*, *Gerbillidae*, *Cricetidae*, *Myocastoridae*,) 21 turi uchrashi aniqlangan (1 — jadval).

Iqlimlashtirish natijasida Buxoro viloyati va unga tutash hududlarda sutemizuvchilarning *Ondatra zibethica*, *Myocastor coypus* turlari tarqalgan. Buxoro viloyati va unga tutash hududlarda yoz oylaridagi jazirama issiq ko'pgina kemiruvchilarning hayotini chegaralab qo'yadi. Agar yumronqoziq 20 minut jazirama issiqda ushlab turilsa, u halok bo'ladi. Janubiy Amerikadan Buxoro viloyatiga olib kelib iqlimlashtirilgan *Myocastor coypus*ning yashash sharoiti shuni ko'rsatadiki, qayerda suvning yuza qismi muzlamasa yoki uzog'i bilan bir oygina muzlasa, o'sha yerda *Myocastor coypus*lar yashab ketadi. Chunki muz nutriyalarning suv ostidan o'simlik ozuqasini topishga xalal beradi.

1 – jadval.

Buxoro viloyati va unga tutash hududlar uchraydigan kemiruvchilarning biotoplarda tarqalishi.

T/r	Turlar	Turning maydon birligidagi soni	Cho'l	To'qayzorlar	Suvlik biotoplar	Tog'oldi biotoplari	Aholi punktlari
	Tip. Chordata						
	Kenja tip. Craniata						
	Katta sinf. Tetrapoda						
	Sinf. Mammalia						
	Kenja sinf. Theria						
	Infra sinf. Placentalia.						
Turkumi: Rodentia							
	Oila: Citellus						
1	<i>Spermophilus fulvus</i>	JK	+				+
2	<i>Spermophilopsis leptodactylus</i>	JK	+				
	Oila: Hystricidae						
3	<i>Hystrix indica</i>	N				+	
	Oila: Dipodidae						
4	<i>Dipus sagitta</i>	K	+				
5	<i>Allactaga Severtzovi</i>	K	+				
6	<i>Allactaga yelater</i>	K	+				
7	<i>Paradipus stenodactylus</i>	O		+		+	
8	<i>Laculus Lichtenshteini</i>	O	+				
	Oila: Muridae						
9	<i>Mus musculus</i>	JK		+			+
10	<i>Rattus rattoides</i>	K		+			+
11	<i>Nesokia Indica</i>	K		+		+	+
	Oila: Gerbillidae						
12	<i>Pallasiomys erythraeus</i>	K	+	+			
13	<i>Meriones tamariscinus</i>	K	+	+			
14	<i>Rhombomys opimus Licht</i>	K	+				
15	<i>Meriones meridianus</i>	O	+				
	Oila: Cricetidae						
16	<i>Microtus transcaspicus</i>	O		+			
17	<i>Ondatra zibethica</i>	K			+		
18	<i>Cricetulus migratorius</i>	K		+			
19	<i>Ellobius talpinus</i>	K					+
20	<i>Microtus socialis</i>	K					+

	Oila. <i>Myocastoridae</i>						
21	<i>Myocastor coypus</i>	O			+		
	Jami		10	8	2	3	6

Turning inson hayotidagi va umuman biogeotsenozdagi ahamiyati uning soni bilan uzviy bog'liq. Buxoro viloyati va unga tutash hududlardagi turli biotoplarda, cho'l, to'qayzorlar, suvlik biotoplar, tog'oldi biotoplari, aholi punktlarida har bir turning maydon birligidagi soni (zichligi) aniqlandi. Turlarning maydon birligidagi soni (zichligi, seroblighi)ga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratildi:

Juda ko'p sonda uchrovchi turlar – (JK) 10 ga. dagi soni 100 tadan ortiq;

Ko'p sonda uchrovchi turlar – (K) 10 ga. da 10 tadan 100 tagacha;

Oz sonda uchrovchi turlar – (O) 10 ga. da 1 tadan 10 tagacha;

Nodavriy uchrovchi turlar – (N) [5]

Hududning ekologik xususiyatlaridan kelib chiqib, kemiruvchilar bir xilda shakllanmagan. Cho'l, to'qayzorlar biotoplarida turlar suvlik, tog'oldi biotoplari va aholi punktlariga nisbatan boy, ya'ni cho'lda kemiruvchilarning 10 ta turi, to'qayzorlarda 8 ta turi, suvliklarda 2 ta turi, tog'oldi biotoplari 3 ta turi, aholi punktlarida 6 ta tur uchraydi (1 – jadval).

Keng tarqalgan turlar toifasiga *Mus musculus*, *Apodemus agrarius*, *Rattus norvegicus*, *Allactaga elater*, *Ondatra zibethica*, *Myocastor coypus* kiritilishi mumkin. Kemiruvchilarda populyatsiyalar sonining davriy o'zgarishi yil fasllari almashinishi bilan bog'liq; kemiruvchilarda populyatsiyalar sonining nodavriy o'zgarishi muhit sharoitlarida kuzatiladigan tabiiy noqulayliklar- qurg'oqchilik, qish mavsumida qattiq sovuq va yoz mavsumidagi yuqori harorat oqibatida oziq manbalarini qisqarishi oqibatida kuzatiladi.

2 — jadval.

Buxoro viloyati va unga tutash hududlarda kemiruvchilarning yetakchi oilalar spektri

№	Oilalar	Turlar soni	%
1	<i>Citellus</i>	2	9,5
2	<i>Hystriidae</i>	1	4,78
3	<i>Dipodidae</i>	5	23,80
4	<i>Muridae</i>	3	14,28
5	<i>Gerbellidae</i>	4	19
6	<i>Cricetidae</i>	5	23,80
7	<i>Myocastoridae</i>	1	4,78
	Jami	21	100

Buxoro viloyati va unga tutash hududlarda kemiruvchilarning yetakchi oilalar tarkibiga 5 turga ega bo'lgan 2 ta oilasi kiritilgan. Buxoro viloyati va unga tutash biotoplarda 7 ta oilaga mansub kemiruvchilarning mavjudligi kuzatildi. Ulardan 1 tadan turni o'zida birlashtirgan 2 ta oila (*Hystriidae*) jami oilalarning 28,57% ini, shuningdek 2 tadan turni o'zida birlashtirgan 1 ta oila 14,28 % ni (*Citellus*), 3 tadan turni o'zida birlashtirgan 1 ta oila 14,28 % ni (*Muridae*) 4 tadan turni o'zida birlashtirgan 1 ta oila 14,28% ni (*Gerbellidae*) tashkil qiladi, 5 tadan turni o'zida birlashtirgan 2 ta oila 14,28% ni (*Cricetidae*, *Dipodidae*) tashkil qiladi (2.jadval).

Xulosa. Buxoro viloyati va unga tutash biotoplarda kemiruvchilar faunasini o'rganish, ularning kadastrini yaratish, doimiy monitoring olib borish, amaliy ahamiyatga molik turlarni himoya qilish uchun juda muhimdir. Buxoro viloyatida uchrovchi kemiruvchilarni o'rganish orqali populyatsiyalarning holatini baholash va ularning o'zgarish tendensiyalarini aniqlash, zararkunanda kemiruvchilar sonini boshqarish imkoniyatlarini oshirgan bo'lamiz. Ushbu tadqiqotlarni muntazam olib borish orqali, kemiruvchilar faolligini yil mavsumiga qarab o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rayimov A.R, M.M.To'rayev, Rustamova M.A, Buxoro viloyati sutemizuvchilarining tur tarkibi va soni. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 2022-6/1, B.25-29
2. A.R. Rayimov, M.M. To'raev, U.I.Ismoilova, Ecological Groups Of Mammals In Bukhara Region And Adjacent Territories European Journal of Molecular Clinical Medicine ISSN 2515-8260 Volume 09, Issue 07, 2022.P.9506-9515
3. A.R. Rayimov, M.M. To'raev, M.A. Rustamova. Buxoro viloyatida uchrovchi O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobiga kiritilgan sutemizuvchilarning tur tarkibi va soni. Global iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatishning ilmiy asoslari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, *Buxoro shahri 2024 yil* b 64-67